



QASHQADARYO VILOYATIDA IQTISODIY JARAYONLARNI MA'LUMOTLAR BAZASI ASOSIDA TASHKIL ETISH VA TAHLIL QILISH.

Daminova Barno Esanovna,

Qarshi davlat universiteti

Algoritmlar va dasturlash texnologiyalari kafedrası dotsenti,

+998 97 200 09 75, barnod@mail.ru

<https://orcid.org/0009-0001-4211-6082> ,

Normatova E'zoza Komiljon qizi,

Qarshi davlat universiteti

Matematika va informatika yo'nalishi, 023–103-guruh

E-mail: normatovaezoza878@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada Qashqadaryo viloyatidagi iqtisodiy jarayonlarni ma'lumotlar bazasi asosida tashkil etish va tahlil qilish masalalari yoritilgan. Hududiy iqtisodiy ko'rsatkichlarni raqamlashtirish, ma'lumotlar bazasini loyihalash, matematik va statistik tahlil orqali samaradorlikni oshirish usullari ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijasida iqtisodiy jarayonlarni boshqarish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: iqtisodiy jarayonlar, ma'lumotlar bazasi, raqamlashtirish, hududiy iqtisodiyot, SQL, tahlil, samaradorlik.

Аннотация. В данной статье рассматриваются вопросы организации и анализа экономических процессов в Кашкадарьинской области на основе базы данных. Освещаются вопросы цифровизации региональных экономических показателей, проектирования базы данных, а также математического и статистического анализа для повышения эффективности. По результатам исследования разработаны практические рекомендации по управлению экономическими процессами.



Ключевые слова: экономические процессы, база данных, цифровизация, региональная экономика, SQL, анализ, эффективность.

Annotation. This article examines the organization and analysis of economic processes in the Qashqadaryo region using a database system. The study covers digitalization of regional economic indicators, database design, and mathematical and statistical analysis to improve efficiency. Practical recommendations for managing economic processes are provided based on the research results.

Keywords: economic processes, database, digitalization, regional economy, SQL, analysis, efficiency.

Bugungi kunda iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida raqamlashtirish jarayoni jadal sur'atlar bilan rivojlanmoqda. Hududiy iqtisodiy ko'rsatkichlarni aniq va tezkor tahlil qilish, boshqaruv qarorlarini ilmiy asosda qabul qilish uchun zamonaviy ma'lumotlar bazasi tizimlaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Qashqadaryo viloyati iqtisodiy salohiyati yuqori bo'lgan hududlardan biri bo'lib, unda qishloq xo'jaligi, sanoat, kichik biznes va tadbirkorlik, savdo va xizmat ko'rsatish sohalari rivojlangan.

O'zbekistonda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlarning asosiy yo'nalishlaridan biri hududlarni kompleks va mutanosib rivojlantirishga qaratilgan. Bu borada Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonidan qabul qilingan 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida ham alohida e'tibor qaratilgan. Mazkur strategik hujjatda hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatini oshirish, ularning raqobatbardoshligini ta'minlash va aholi turmush darajasini yuksaltirish asosiy vazifalardan biri sifatida belgilangan.

Hududiy iqtisodiyot salohiyatini baholash murakkab va ko'p qirrali jarayon bo'lib, uni kompleks yondashuv asosida amalga oshirish talab etiladi. Chunki har bir hudud o'zining tabiiy-iqlim sharoitlari, demografik holati, ishlab chiqarish va resurs salohiyati, infratuzilmasi va boshqa xususiyatlari bilan farqlanadi. Shu bois, hududiy iqtisodiy salohiyatni baholashda ushbu omillarning barchasini inobatga olish zarur.



Korxona faoliyatini iqtisodiy tahlil qilish — iqtisodiy faoliyatning tarkibiy qismi sifatida o'z boshlanishi va adog'iga ega. Bu jarayon bir gancha bosqichlardan iborat: Tahlil o'tkazishning maqsadini aniqlash va dasturini tuzish. Ijtimoiy-iqtisodiy axborotlarni to'plash.

Axborotlarni tahlil qilish maqsadi va vazifasidan kelib chiqqan hoida qayta ishlash, tegishli hisob-kitoblarni amalga oshirish va jadvallar tuzish.

Xulosani chuqurlashtirish maqsadida lozim bo'lgan holatlarni chugurroq o'rganish uchun ularning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash va ularning ta'sirini hisoblash.

Xo'jalik faoliyati yoki o'rganilayotgan ko'rsatkichlar haqida mufassal xulosaga kelish.

.Korxona xo'jalik faoliyatini yoki o'rganilayotgan ko'rsatkichni yaxshilash yo'llarini ishlab chiqish va ularni amaliyotga tatbiq etish.

Amalda doim faoliyat ko'rsatuvchi korxona bo'lsa, tahlil ham har bir hisobot tuzilgandan keyin va yangi davrni boshlashdan oldin muntazam ravishda o'tkazib turiladi. Unda barcha bosqichlar aynan shu holatda takrorlanishi mumkin. Faqat ko'rsatkichlarning raqamlari o'zgaradi. Shu tufayli iqtisodiy tahlilning mantiqiy ketma-ketligini ta'minlagan holda uni kompyuterga kiritish va tahlil usulini dasturlash ham mumkin. Albatta, shuni e'tirof etish kerakki, tahlil ishlarini dasturlashda va uni avtomatlashtirishning ayrim masalalari Voljin va V.V.Ergashboyevlarning kitoblarida yoritilgan.

Iqtisodiy tahlil umumqabul qilingan tamoyillarga qat'iy asoslanishi lozim. Korxonalarining xo'jalik faoliyati tahlilida tamoyillar bilimning turli jabhalari uchun qo'llaniladi: obyektivlik, ilmiylik, tizimlilik, aniqlik, komplekslilik, muntazamlilik, taqqoslanuvchanlik. Ixtiyoriy darajadagi xo'jalik faoliyati tahlilini olib borishda ularga asoslanish talab qilinadi. Obyektivlik tamoyili tadqiq etilayotgan hodisa, vaziyat, jarayonlar tekshirilgan va ishonchli iqtisodiy axborotlar tizimida ifodalangan obyektiv voqelikni aks ettirishi lozim.



Ilmiylik tamoyili tahlil o'tkazishda ilmiy asoslangan metodika va tartiblarga tayanish lozimligini anglatadi.

Tizimlilik tamoyili: tadqiq etilayotgan jarayonlar, iqtisodiy hodisalar, xo'jalik operatsiyalari bir-biri bilan o'zaro aloqadorlikd. yagona tizimda o'rganilishini anglatadi.

Aniqlik tamoyili o'rganilayotgan iqtisodiy hodisa va jarayonlar konkret real ma'lumotlarga asoslanishi lozim, natijalar esa aniq analitik hisob-kitoblarga asoslanadi.

Komplekslilik tamoyili tizimli tahlilning asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi va butun va uning qismlariga dialektik yondashuv sifatida ko'rib chiqiladi. Tahlil va sintez birligi haqida mulohazalarga tayangan holda hodisa va jarayonlarning barcha jihatlarini ichki aloqadorlikda hamda omillar ta'sirida o'rganish asosida xo'jalik faoliyati haqida aniq bilimlarga ega bo'lish va uni to'g'ri baholash mumkin. Demak, kompleks yondashuv faoliyatning barcha jihatlarini qamrab olish, korxonalar iqtisodiyotidagi sabab bog'lanishlarini har tomonlama o'rganishni talab qiladi.

Muntazamlilik tamoyili hodisadan hodisagacha emas, balki oldin-dan belgilangan vaqt oralig'ida doimiy ravishda, uzluksiz tahlil olib borilishini talab qiladi.

Amaliylik tamoyili korxonalar faoliyatida kamchilik va xatoliklarni o'z vaqtida aniqlash va kelgusida bu holatlarga yo'l qo'ymaslikni anglatadi. Ishlab chiqilgan tavsiyalar belgilangan natijalarga erishish maqsadida yo '1 qo'yilgan kamchiliklarni bartaraf etishga yo naltiriladi.

Taqqoslanuvchanlik tamoyili taqqoslanuvchanlik shartiga rioya qilishini talab qiladi. Taqqoslanuvchanlik ta'minlashini uchun taqqoslanayotgan davrlarda ko'rsatkichlar o'lchanishi va aks ettirilishi yagona uslubiyot bo'yicha amalga oshirilishi lozim.

Xo'jalik faoliyatini tahlil qilish fanining mohiyati va mazmuni ham islohotlar davrida tuban o'zgardi. Oldin tahlilning natijasi asosan rejani bajarish uchun ichki imkoniyatlarni axtarib topishga garatilgan bolsa, endilikda har bir korxonaning ichki



imko niyatlarini moliyaviy-xo'jalik faoliyatini yaxshilash uchun safarbar gilishga garatiladi. ligari tahlil yaxshi yutuglarni oshkor etgan bo'lsa, endilikda bu tijorat siridir. Bozor iqtisodiyoti sharoitida har bir korxona o'z tijorat sirlarini saqlashga majbur. Bunday sharoitda xo'jalik faoliyatini tahlil qilishning umumiy usuli bolishi lozim. Lekin har bir korxona ushbu umumiy usullar orgali o'zining ichki imkoniyatlarini topadi va u o'ta muhim bolsa, tijorat siri sifatida saqlanadi. Xullas, raqobat har bir korxonani, ularning mulk shaklidan gat'iy nazar, samarali ishlashini talab giladi. Samaradorlikni uzluksiz oshirib borish uchun uning holatini chuqur organishni, tahlil gilishni taqozo giladi.

Shu orgali har bir korxona o'zining istiqbolini, moliyaviy barqarorligini ta'minlashni ko'ra bilishi lozim.

Xo'jalik faoliyatini tahlil qilishda juda ko'p usullar qo'llaniladi.

Ularni shartli ravishda ikki guruhga bo'lib o'rganish mumkin:

- 1) an'anaviy usullar;
- 2) matematik usullar.

An'anaviy usullar eng qadimgi bo'lib, ular tahlil vujudga kelgan kundan boshlab qo'llanilib kelinmogda. Ularga quyidagilar kiradi: solishtirish usuli, muvozanat usuli (balans usuli): farqli usul: qayta hisoblash usuli; zanjirli almashtirish usuli: indeks usuli: integral usul; nisbiy ko'rsatkichli usul kabilardir. Bundan tashgari, bir qancha statistik usullar ham qo'llaniladi.

Matematik usullar tahlil fanining takomillashuvi bilan, unga EHMlarni qo'llash va matematik usullardan foydalanish jarayonida kirib kelgan. Buning bir qancha usullari bilan birgalikda bir gancha turlari ham mavjud. Matematik modellarning turlariga quyidagilar kiradi; multiplikativ model; additiv model; kasrli model kabilardir.

Ushbu modellaring hammasi ham iqtisodiy axborotlarni tahlil gilishda keng qo'llanilib kelinmoqda.

Additiv model natija va omillar o'rtasidagi bog'liqlik qo'shuv bilan ifodalanganda qo'llaniladi. U o'qilishi-yozilishi jihatdan juda sodda va ixchamdir.



Multiplikativ model natija bilan omillar o'rtasidagi bog'liqlik ko paytirish bilan ifodalansa, go'llaniladigan modeldir. Kasrli model esa natija bilan omillar o'rtasidagi bog'liqlik bo'lish bilan ifodalanganda qo'llaniladi.

Matematik tahlil va jadval

Tuman	Yil	Korxonalar soni	Daromad (mln. so'm)	Ish o'rinlari
Qarshi	2022	150	1200	3200
Shahrisabz	2022	95	800	2100
G'uzor	2022	110	950	2500
Qarshi	2023	160	1300	3400
Shahrisabz	2023	100	850	2200

SQL da misol keltiramiz. Masalan, Qarshi shakar zavodining 2023-yil ko'rsatkichlarini chiqarish

```
SELECT Korxona_nomi, Yil, Daromad, Ish_orinlari, Mahsulot_hajmi  
FROM Iqtisodiy_Malumotlar  
WHERE Korxona_nomi = 'Qarshi Shakar Zavodi'
```

Natija:

Korxona nomi	Yil	Daromad	Ish o'rinlari	Mahsulot hajmi
Qarshi Shakar zavodi	2023	1300	3400	5500

Mazkur maqolada Qashqadaryo viloyatidagi iqtisodiy jarayonlarni ma'lumotlar bazasi asosida tashkil etish va tahlil qilishning samarali usullari ko'rib chiqildi. Hududiy iqtisodiy ko'rsatkichlarni raqamlashtirish va SQL yordamida tahlil qilish orqali qaror qabul qilish jarayoni tez va aniq amalga oshiriladi. Tahlil natijalari hududiy iqtisodiy rivojlanishni boshqarish bo'yicha amaliy tavsiyalar beradi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Даминова Б. Э. ПРИНЦИПЫ И ТРЕБОВАНИЯ АДАПТАЦИИ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В ИЗМЕНЯЮЩИХСЯ СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКИХ УСЛОВИЯХ //Yosh mutaxassislar. – 2023. – Т. 1. – №. 8. – С. 31-36.
2. Тошиев А. Э., Даминова Б. Э., Тошиев АЭ Д. Б. Э. Формирование самаркандской региональной транспортно-логистической системы //Перспективные информационные технологии (ПИТ 2017)[Электронный ресурс]: Междунар. науч.-техн. конф. – 2017. – С. 14-16.
3. Daminova B. Formation of the management structure of educational processes in the higher education system //Science and innovation. – 2023. – Т. 2. – №. A6. – С. 317-325.
4. Benzerara M. et al. Advanced Strengthening of Steel Structures: Investigating GFRP Reinforcement for Floor Beams with Trapezoidal Web Openings //E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2024. – Т. 497. – С. 02013.
5. Daminova B. Formation of the management structure of educational processes in the higher education system //Science and innovation. – 2023. – Т. 2. – №. A6. – С. 317-325.
6. Pant R. et al. Study of produced harmonics in DFIG powered by wind turbines over linear and nonlinear loads //E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2024. – Т. 563. – С. 01006.
7. Daminova B. Organizational and economic mechanisms and conceptual directions of tourism development in the region //Innovation Science and Technology. – 2025. – Т. 1. – №. 7.
8. Benzerara M. et al. Advanced Strengthening of Steel Structures: Investigating GFRP Reinforcement for Floor Beams with Trapezoidal Web Openings //E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2024. – Т. 497. – С. 02013.



9. Daminova B. Organizational and economic mechanisms and conceptual directions of tourism development in the region //Green Economy and Development. – 2024. – Т. 3. – №. 7. – С. 666343.
10. Esanovna D. B. ORGANIZATIONAL AND ECONOMIC MECHANISMS AND CONCEPTUAL DIRECTIONS OF TOURISM DEVELOPMENT IN THE REGION //INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 8.036. – 2025. – Т. 14. – №. 11. – С. 91-94.
11. Даминова Б. Э. и др. ОБРАБОТКА ВИДЕОМАТЕРИАЛОВ ПРИ РАЗРАБОТКЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ РЕСУРСОВ //Экономика и социум. – 2024. – №. 2-2. – С. 117.
12. Daminova B. E. MONITORING METHODS BASED ON MULTILEVEL EDUCATIONAL PROCESSES DATA //Экономика и социум. – 2025. – №. 2-1 (129). – С. 140-142.
13. Esanovna D. B. THE ROLE OF MODERN INFORMATION AND COMMUNICATION TECHNOLOGIES IN THE DEVELOPMENT OF THE NATIONAL ECONOMY //Лучшие интеллектуальные исследования. – 2025. – Т. 52. – №. 1. – С. 54-60.
14. Daminova B. E. et al. SUN'IY INTELLEKTNING RIVOJLANISH TENDENSIYASI //Экономика и социум. – 2025. – №. 5-1 (132). – С. 221-225.
15. Esanovna D. B. et al. OPPORTUNITIES FOR THE DEVELOPMENT OF DIGITAL INFORMATION USING ARTIFICIAL INTELLIGENCE //Modern education and development. – 2026. – Т. 43. – №. 2. – С. 3-11.